

MA'NAVIY BARKAMOLLIKDA MILLIY QADRYATLARNING Q'RNI

*Axmedov Sherzodjon Zokirovich
O'zbekiston Respublikasi IV Malaka oshirish instituti
tadqiqotchisi*

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN SPIRITUAL MATURITY

*Akhmedov Sherzodjon Zokirovich
Researcher of the Institute of the Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan*

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНОЙ СОВЕРШЕННОСТИ

*Ахмедов Шерзод Зокирович
Соискатель института повышение квалификации МВД
Республики Узбекистан*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy barkamollikda milliy qadryatlarning o'rni masalasi yoritilgan. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonda yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an'analarni mustahkam shakllantirishdir. Pirovard maqsadimiz esa ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalashdir.

Kalit so'z: ma'naviyat, ma'rifat, komil inson, globalization, taraqqiyot, milliy qadriyat.

Abstract: This article discusses the role of national values in spiritual maturity. In today's era of socio-economic development, one of the important ways of ensuring the youth's activity is the solid formation of national customs and traditions in their minds. Our primary goal is to educate a spiritually mature and perfect person.

Key words: spirituality, enlightenment, perfect person, globalization, development, national value.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль национальных ценностей в духовной совершенности. В современную эпоху социально-экономического развития одним из важных способов обеспечения активности молодежи является прочное формирование в ее сознании национальных обычаяев и традиций. Наша основная цель – воспитать духовно зрелого и совершенного человека.

Ключевые слова: духовность, просвещение, совершенный человек, глобализация, развитие, национальная ценность.

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT)

Bugungi globallashgan davrda jamiyatda ma'naviyat rivojlansagina ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik vujudga kelib, saqlanib qolishi va rivojlanishini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblangan yosh avlodning barkamol rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Ma'naviyatning o'zagi bo'lgan milliy – an'analar oila bag'rida va mahalla ostonasida

shakllanib ko'p asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan urf-odat va qadriyatlar sifatida ularning ahamiyati bugungi kunda beqiyosdir. Shu bilan birga, bugungi axborot xuruji taraqqiyotimiz uchun xavfli bo'lган, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yoshlarni destruktiv ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladigan buzg'unchi g'oyalar endi nafaqat chet el ommaviy axborot vositalari balki internet va turli ijtimoiy tarmoqlar orqali ham keng targ'ib qilinmoqda.

Bunday tahdidlardan o‘z vaqtida himoyalish, unga qarshi javob bera olish uchun yuksak ma’naviyatli va ma’naviy barkamol yoshlar jamoasini shakllantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Aynan shunday ma’naviy va mafkuraviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o‘z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Milliy qadriyatlar insonni o‘z-o‘zini anglashi, milliy g‘ururga ega bo‘lishi, o‘z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o‘tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o‘z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo‘lib yetishishi uchun xizmat qiluvchi mezondir [1].

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta’minalashning yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an’analarni mustahkam shakllantirishdir. Zero, milliy urf-odatlar har bir xalq hayotining barcha sohalariga singib ketgan bo‘lib, xalqlarning milliy o‘zligini tarannum etuvchi dalildir.

Bugungi yosh avlodni o‘ziga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar zanjiri bo‘lgan xayr-sahovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, bosiqlik, ulug‘vorlik va sabrlilik kabi ma’naviy fazilatlar mezonlari asosida tarbiyalash ularda mehmondo’slik, bag‘rikenglik, bolajonlilik, oqko‘ngillilik va halol mehnat qilish kabi tuyg‘ularning shakllanishiga olib keladi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir.

Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo‘silib, taraqqiyotimizni tezlashtirishi, g‘oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’minalashi ham ayni haqiqatdir. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma’naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalardir [2].

Ertangi oldimizdagи turgan eng ezgu maqsadlarimiz biri mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon

hayotimiz uchun yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o‘rni bilan bog‘liqdir. Yoshlar tarbiyatiga bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylilik, hayrihohlilik, imonlilik, halollik, mehr-shavqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish ularni vatan taqdiriga nisbatan ma’suliyatni his qiluvchi muayan jamiyat vakili sifatida jamiyat vakili sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizning jahondagi nufuzini oshirishda mas’ullik tuyg‘ularini shakllantiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma’naviyati takomil bosqichlari bu o‘lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ko‘pgina tadqiqotchilar milliy ma’naviyatimizning necha ming yillik tarixini quyidagi uchta yirik davrga ajratib o‘rganishgan:

Birinchi va ikkinchi renessans davridagi milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti;

Yangi davrdagi milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti [3].

Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviyatimiz va uning takomillashishi haqidagi eng muhim manbalar zardushtiylikning “Avesto” kitobi va turkiy bitiklar, arxeologik yodgorliklar – moddiy ashyolar va turli inshootlar hamda xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot namunalari, urf-odat va marosimlar, o‘yinlar, bayramlar sanaladi.

Til – har bir xalq va millatning milliy o‘zligini namoyon qilishda muhim vositadir [4]. O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy – ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singdiriladi. Shuning uchun til millatning ruhi sifatida e’tirof etiladi.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniying “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur” deb tilga ta’rif bergan [5].

Ma’naviy-ma’rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini yoshlarda, shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g‘urur bo‘lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlari jo‘sh urmaydi.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Vatan istiqloli va istiqboli haqida qayg‘urish;
- xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;
- butun mehnati, iste’dodi, imkoniyatini, zarur bo‘sса jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalardir [6].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Mustaqillik, bu - bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma’naviyatdir. Shu ma’naviyatni har birimiz avaylab-asrashimiz davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim vazifa va burchdir. Shu vazifani amalga oshirish va hal qilishda yoshlар va butun xalq ongiga mustaqillik ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy barkamollikning qirralaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g‘urur bu milliy iftixordir. Milliy g‘urur o‘z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir.

O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxirlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi. Bunday kishilarni ma’naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Ma’naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasi qanchalik murakkab bo‘lmisin, uni amalga oshirganimizdagina pirovard maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma’no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o‘zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko‘zga tashlanadi. Qur’oni Karim insonparvarlik g‘oyalari asosida qurilgan. Muhammad alayhhissalom hadislari shu g‘oyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shavqatida, diyonatda, o‘zarо ko‘maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi.

O‘zbek xalqi doimo umuminsoniyat dardini qo‘llab kelgan. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi g‘oyalari – insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning qarashlarida, vatanga, xalqqa sadoqat eng avvalo uning taqdiri ustida g‘amxo‘rlikdan iboratdir. Navoiy ijodida bu mavzuning alohida o‘rin egallaganligi tafsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o‘z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan mutakfakkirdir. U xalq uchun, El-ulus uchun, beva-bechora, yetim-yesirlar uchun madrasalar, shifo maskanlari qurdirgan. Bunday misollarni juda ko‘p keltirish mumkin.

Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim bo‘lib u tarbiya bilan chambarchas bog‘liqidir. Ta’limni - tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir [7].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ta’lim-tarbiya muassalarining o‘rni nihoyatda kattadir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan ma’naviy tarbiya jarayonida, barcha o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar, qo‘shimcha adabiyotlarda, o‘tkaziladigan tadbirlarda quyidagi ma’naviy-ma’rifiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiq:

- Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat va hurmat uyg‘otish;
- milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimizga hurmatni kuchaytirish;
- ezzulik timsoli bo‘lgan ayolni ulug‘lash;
- umuminsoniy qadriyatlarining millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanligini uqtirish;
- dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglatish;
- huquqiy madaniyat, sog‘lom dunyoqarash, sog‘lom ma’naviy fazilat shakllanishing muhim omili ekanligini tushuntirish;
- o‘z tarixini bilish orqali o‘zligini anglash kabi tamoyillar shulardan iborat [8].

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida

to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Ma’lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning holidan xabar olish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa har bir kishi qalbida milliy qadryatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha’ni uchun kurash, o‘zaro yordam kabi fazilatdarni kamol topishida mahallaning o‘rnini beqiyos.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy taraqqiyot va axborotlashgan jamiyat davrida ta’lim muassasalarida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalardan tortib, sinf va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy ta’lim beruvchi ijtimoiy ko‘rgazmali qurollar bilan jihozlash maqsadga muvofiq. Shundagina shaxs ma’naviyatini shakllantirish borasida qo‘yan maqsadga erishamiz. Shuning bilan ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirib borish ham eng dolzarb vazifalarimiz qatorida turganligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati”: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: ... nashriyoti, 2023. – 480-bet. Mas’ul muharrir: Olimjon Davlatov.
2. X.P.To‘xtayev. Milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligi // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari, International Scientific Conference National University of Uzbekistan, aprel 2022. – B. 513.
3. Имомназаров М., Эшмуҳамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Т., 2001.97-б.
4. M.Qurbanova. Til – millatning ma’naviy boyligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (5), May, 2024. – B. 519.
5. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: “Ўқитувчи”, 1992.
6. С.Отамуратов, Ж.Раматов, С.Хусанов. Маънавият асослари. Маърузалар матни. Тошкент, 2000. Б. 167.
7. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch”. — Т.: «Ma’naviyat», 2010. — 176 b.
8. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Тошкент, «Шарқ», 1998.

